

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Saidumarov I.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat insituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning estrada qo'shiqchiligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Unda raqamli vositalar, sun'iy intellekt, vokal protsessorlar va onlayn ta'limdan foydalanish masalalari yoritilgan. Texnologiyalar vokal tayyorgarligi, ovoz sifatini yaxshilash va noyob ijro uslublarini yaratish jarayonini qanday o'zgartirayotgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, vokal, texnologiya, ta'lim, estrada, xonanda, onlayn platforma, masofaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние инновационных технологий на эстрадное пение, включая использование цифровых инструментов, искусственного интеллекта, вокальных процессоров и онлайн-обучения. Анализируется, как технологии меняют подход к вокальной подготовке, улучшению звука и созданию уникальных исполнительских стилей.

Ключевые слова: инновация, вокал, технология, образование, эстрада, певец, онлайн платформа, дистанционное образование.

Abstract: This article examines the impact of innovative technologies on pop singing, including the use of digital tools, artificial intelligence, vocal processors, and online learning. It analyzes how these technologies are transforming approaches to vocal training, sound enhancement, and the creation of unique performance styles.

Key words: innovation, vocal, technology, education, pop music, singer, online platform, distance education.

Kirish. Estrada xonandaligi - qo'shiqchilik san'atining bir tarkibi bo'lib, unda xonandalar ommaviy tamoshabinlar uchun qo'yiladigan konsertlar va shoularda ishtirok etishadi. O'zbek estrada xonandalari milliy maqom va estrada janrlarida faoliyat ko'rsatadilar. O'zbekistonda estrada san'ati rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi ijodiy loyihalar, iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va milliy musiqa an'alarini saqlab qolish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, shu bilan birga estrada san'atida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayonga ta'lim tizimidagi zamonaviy

texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish asosiy omil hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari doirasida madaniyat va san'at, axborot texnologiyalariga qaratilayotgan katta e'tibor estrada ijodkorlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda[1]. Biroq, afsuski ayrim muammolar ham mavjud:

- Sahna madaniyati – xonandalarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati va ijodiy saviyasiga e'tibor qaratish zarur;

- Qo'shiqlar sifati – ayrim qo'shiqlar mazmunining sayozlashib borishi muxlislar tomonidan tanqid qilinmoqda;

- Yosh iste'dodlarni targ'ib qilish – yosh xonandalarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodini ommalashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Estrada xonandalari esa innovatsiya imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori sifatli audio-vizual effektlar, interaktiv konsertlar va onlayn platformalar orqali o'z ijodini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning imidjini yangilash va muxlislar safi kengayishiga ko'mak beradi. Zamonaviy estrada musiqasi texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi xonandalarga yangi imkoniyatlar yaratib, vokal mahoratini takomillashtirishga, ovoz ustida tajriba o'tkazishga va yuqori professional darajaga erishishga yordam bermoqda.

Asosiy qism: Bugungi kunda zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalar vokal ta'limida katta ahamiyatga ega. Ular talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ovozni to'g'ri boshqarish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ta'lim tizimida esa innovatsion pedagogik texnologiyalar yangilik kiritib, o'quv jarayonini rivojlantirishga hissa qo'shish orqali rivojlanmoqda. Innovatsion texnologiyalar estrada vokaliga katta o'zgarishlar kiritdi, uni yanada dastlabkiga nisbatan qulay, texnik jihatdan rivojlangan va ifodali qildi. Vokal protsessorlari, sun'iy intellekt va virtual texnologiyalardan foydalanish kuychilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi, ularga o'z mahoratlarini takomillashtirish va noyob musiqiy uslub yaratish imkonini berdi.

Xo'sh, o'zi innovatsion texnologiya nima? Innovatsion texnologiya tushunchasi ancha keng qamrovli bo'lib, yangi texnika va metodlar yaratish, texnologiya avlodini almashtirish, bozor strategiyalarini takomillashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ular tizimni rivojlantirishga yo'naltirilib, samaradorlikni oshirib, faoliyatda yangi sifat natijalariga erishishga yordam beradi.

Zamonaviy vokal ta'lim jarayoni faqat individual darslarga asoslanib qolmaydi. Bu jarayonda talaba o'z ovozinig to'g'ri jaranglashini tinglab, pedagogning og'zaki tushuntirishlarini eshitadi hamda o'z ijrosiga baho oladi.

Biroq, kuylash vaqtida o'z ovozi to'g'ri idrok etish qiyin bo'lishi mumkin, chunki tovush organizmning mushak to'qimalari orqali o'tib, biroz o'zgarishga uchraydi. Texnik vositalardan, jumladan, audio va video yozuv qurilmalari hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish vokalning to'g'ri jaranglashi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda pedagog va talabalarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu vositalar dars yozuvlarini qayta-qayta tinglash va tomosha qilishga imkon yaratadi. Bu esa nafaqat pedagogga, balki talabaning o'ziga ham ovozi obyektiv baholash va uni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Pedagog boshchiligida izohli tinglash vokal ijrosini tahlil qilish, o'zini baholash va nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Oddiy audio qurilmalar odatda tovushni soddalashtiradi, ammo ular muayyan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali eng yuqori sifatli vokal ijroga erishish imkoniyatini beradi. Mashhur ijrochilarning yozuvlarini tinglash esa musiqiy tajribani oshirishga yordam beradi va talabalar uchun vokal etalonini shakllantirishda yo'nalish ko'rsatadi. Kompyuter texnologiyalari nafaqat o'quv materiallarini vizualizatsiya qilish va ovoz bilan ta'minlashga, balki aranjirovka yaratish, mualliflik kompozitsiyalarini yozish, notalar terish, sahifalash va musiqa asarlarini transpozitsiya qilishga ham imkon beradi. Bu esa ayniqsa boshlang'ich bosqichlarda muhim bo'lib, yangi boshlayotgan vokalistlar uchun moslashtirilgan musiqiy material tanlashda qo'l keladi. Zamonaviy pedagogik metodlarda fonogrammalar (minusovkalar)dan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat dars jarayonida, balki konsert amaliyotida ham keng qo'llaniladi. Fonogrammalar qulayligi shundaki, ular auditoriyada musiqa asbobining mavjudligiga yoki konsertmeysterga bog'liqlikni yo'q qiladi. Bundan tashqari, fonogrammalar talabalarining vokal san'atiga qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonini yanada jozibali qiladi. Fonogrammalar yaratish uchun maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin, jumladan: sekvensorlar (CakewalkProAudio, CubaseVST), virtual sintezatorlar (Reaktor, ReBirth, Gigastudio), tovush tahrirlash dasturlari (SoundForge, WaveLab, CoolEditPro, Samplitude) va kompakt-disklarni yozish dasturlari (WinOnCD, NeroBurningROM). Shuningdek, musiqachilar Internetdagi resurslardan, jumladan, nota arxivlari va fonogrammalar yozuvlaridan ham foydalanishlari mumkin.

Vokal ta'limida texnik vositalardan foydalanish talabalarda tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga, vokal-texnik hamda ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini motivatsion, qiziqarli va ijodiy qiladi.

Onlayn platformalar – masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi, video darslar va virtual mashg’ulotlar orqali o’quv jarayonini boyitadi. Kouching va individual yondashuv – har bir talabaning ovoz xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Ayrim muhim texnologiyalar quyidagilarni o’z ichiga oladi: Interaktiv usullar – o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, masalan, keys-stadi, klaster usuli va Venn diagrammalari shular jumlasidan.

Vokaldan dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining ko’lami ta’limning sifatini oshirishga yo’naltirilgan. Bu texnologiyalar orqali interaktiv darslar tashkil etilishi, talabalarning ijrosi va texnikasini yaxshilash uchun yangi usullarni joriy etish imkoni bor. Estrada xonandaligidagi eng muhim yutuqlardan biri vokal protsessorlari bo’lib, ular ovoz tembrlarini o’zgartirish, effektlar qo’shish (masalan, reverberatsiya, xorus, avtotyun) va intonatsiyani real vaqtda tuzatish imkonini beradi. TC-Helicon VoiceLive va Antares Auto-Tune kabi mashhur qurilmalar xonandalar uchun haqiqiy yordamchiga aylanib, ovoz balandligi va tovushdagi noaniqliklarni to’g’rilashga yordam beradi, ijrochilarga studiya yozuvlarida va konsertlarda mukammal ovozga erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar noyob musiqiy fonlarni yaratishga imkon beradi. Masalan, Endel startapi kun vaqti va foydalanuvchining kayfiyatiga asoslangan ovoz effektlarini generatsiya qiluvchi dastur ishlab chiqdi.

Tovush balandligini tuzatish (Avtotyun, Melodyne) – ijro vaqtida xatolarni minimallashtirishga yordam beradi. Avtotyun va Melodyne xonandalar uchun haqiqiy yordamchiga aylanib, ovoz balandligi va tovushdagi noaniqliklarni to’g’rilashga yordam beradi. Vaqtda kuyni garmonizatsiya qilish imkoniyati esa yakka tarzda chiqish qiluvchi xonandalarga ko’p ovoqli partiyalar yaratish imkonini beradi.

Onlayn ta’lim va raqamli platformalar ta’limning o’sishi qo’shiqchilarga qulay formatda o’rganish, dunyo yulduzlarining master-klasslariga kirish imkoniyatini berdi. MasterClass va Berklee Online kabi platformalardagi o’quv kurslari yetakchi mutaxassislardan uydin chiqmagan holda o’rganish imkoniyatini taqdim etadi, pedagoglar bilan fikr almashish imkoniyatini yaratadi [2].

Onlayn ta’limning afzalliklari quyidagicha:

- Moslashuvchan jadval va eng yaxshi mutaxassislarga kirish;
- Sun’iy intellekt yordamida vokal tahlili;
- Shaxsiylashtirilgan o’quv dasturlarini yaratish imkoniyati.

Innovatsion texnologiyalar estrada vokaliga katta o’zgarishlar kiritdi, uni yanada dastlabkiga nisbatan qulay, texnik jihatdan rivojlangan va ifodali qildi.

Vokal protsessorlari, sun'iy intellekt va virtual texnologiyalardan foydalanish kuychilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi, ularga o'z mahoratlarini takomillashtirish va noyob musiqiy uslub yaratish imkonini berdi. Kelajakda texnologiyaning ovoz san'ati bilan yanada uyg'unlashishi kutiladi, bu esa yangi ijro mahorat shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Sun'iy intellekt vokalni o'rganishda yangi imkoniyatlarni ochadi: ovoz tahlili, tavsiyalar va personallashtirilgan mashqlar orqali ovoznı rivojlantirish ancha samarali bo'ladi. Virtual va qo'shimcha reallik esa butunlay boshqa bir san'at turi. VR-konsertlar xonandalarga sahnada o'zini his qilish, tinglovchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi, AR-ilovalar esa ovoz apparatining ishlashini vizuallashtirishda yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalar estrada xonandalikka yondashuvni tubdan o'zgartirdi, uni yanada qulay, texnik jihatdan rivojlangan va ifodali qildi. Vokal protsessorlari, sun'iy intellekt va virtual texnologiyalardan foydalanish qo'shiqchilarga o'z mahoratini oshirish va noyob musiqa uslubini yaratish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi, shuningdek innovatsion texnologiyalar va internet resurslarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, o'qitish hamda tarbiyalashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvning markaziy jihati vokal san'atini o'zlashtirishning original nazariy va amaliy metodlarini namoyish etish, shuningdek, pedagogik mahoratni barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan faol muloqot asosida uzatishdir. Bu esa pedagogikaning yangi imkoniyatlarini ochib, o'quvchining zamonaviy rivojlanishiga yordam beradi. Kelajakda texnologiya va qo'shiq san'atining yanada yaqinlashishi natijasida ijrochilik mahoratining yangi shakllari paydo bo'lishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PF-165-son 06.07.2022. 2022-2026 yillarda O'zbekiston <https://lex.uz/uz/docs/6102462?ONDATE=07.07.2022>.
2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari.
<https://staff.tiame.uz/storage/users/827/articles/DS9xyky5HhZ9dZze1inSvi0iy6OGqhb5MfvP9PBm.pdf>
3. Pirmatov Sh. Vokal texnikasi asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Musiq" nashriyoti, 2011.
4. Vakkai Nikolo. The practical method of Italian chamber singing. Principles of vocal staging. «Planet of Music», 2019.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

